

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-iyul oylari uchun


- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-iyul oylarida, Farg'ona viloyatida jami 13 770,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

■ Hajm, mlrd so'mda ■ O'sish sur'ati



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	13 770,4	119,5
shaharlar:		
Farg'ona shahri	2514,7	117,7
Qo'qon shahri	915,9	148,5
Quvasoy shahri	552,6	113,9
Marg'ilon shahri	1268,3	121,0

davomi

	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
tumanlar:		
Oltiariq tumani	329,1	121,2
Qo'shtepa tumani	518,1	165,5
Bag'dod tumani	342,8	133,6
Buvayda tumani	393,2	110,8
Beshariq tumani	647,7	111,4
Quva tumani	313,4	133,7
Uchko'priq tumani	420,3	107,7
Rishton tumani	235,3	151,4
So'x tumani	181,1	107,0
Toshloq tumani	375,6	125,8
O'zbekiston tumani	487,4	109,3
Farg'ona tumani	428,4	118,2
Dang'ara tumani	340,3	124,6
Furqat tumani	194,1	204,9
Yozyovon tumani	314,9	111,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 70,5 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,7 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 37,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,8 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 139,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	1 265,6	807,4	64,5
<i>o'sish sur'ati, %</i>	156,7	100,0	110,5
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 918,0	2 312,2	871,6
<i>o'sish sur'ati, %</i>	115,2	54,2	141,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	3 520,1	11,2	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,9	0,4	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 137,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 146,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,9 % ga ko'payib, 15,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,8 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,0 % ni tashkil etgan holda 8 101,8 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 25,6 % ni yoki 3 531,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Shahar, tumanlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	2 137,4	8 101,8	3 531,3	1	1	1
shaharlar:						
Farg'ona shahri	293,6	2042,8	178,3	129,5	116,6	113,0
Qo'qon shahri	218,1	547,0	150,8	354,2	129,9	112,5
Quvasoy shahri	13,7	497,6	41,3	300,4	112,6	106,4
Marg'ilon shahri	367,9	786,5	113,9	77,7	167,2	109,5
tumanlar:						
Oltiariq tumani	71,8	161,0	96,3	570,3	92,9	112,5

Qo'shtepa tumani	280,3	80,1	157,7	210,9	97,0	161,6
Bag'dod tumani	31,4	226,7	84,7	118,0	144,5	116,0
Buvayda tumani	9,9	331,6	51,7	11,8	167,4	71,6
Beshariq tumani	9,4	563,8	74,5	110,7	111,6	109,7
Quva tumani	40,6	146,8	126,0	243,4	130,5	119,7
Uchko'prik tumani	94,6	291,4	34,3	1541,4	82,6	109,9
Rishton tumani	127,4	30,1	77,8	1476,1	37,7	115,9
So'x tumani	19,0	140,7	21,4	228,0	100,7	101,1
Toshloq tumani	39,2	224,4	112,0	299,5	140,1	89,4
O'zbekiston tumani	8,8	398,7	79,9	118,5	99,1	221,6
Farg'ona tumani	52,3	287,2	88,9	64,9	134,9	128,6
Dang'ara tumani	16,7	280,7	42,9	118,8	124,7	126,2
Furqat tumani	91,3	39,9	62,9	1929,1	91,7	135,5
Yozyovon tumani	60,0	175,4	79,5	167,2	90,5	152,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2025-yilning mos davriga nisbatan Furqat tumanida 19,0 marta, Uchko'prik tumanida 14,4 marta Rishton tumanida 14,7 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buvayda tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 1,7 marta), Marg'ilon shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 1,7 marta) va Bag'dod tumanida (1,4 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;



f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

L.Yefimova
73 241-98-42
